TASAVVUF TARIQATLARI TA’LIMOTIDA KOMIL INSON MASALASI

Tangirberdiyev Sherzod Gapparovich, Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: sherzodgapparovich654@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada islomiy tasavvuf tariqatlarining ta’limotida komil inson konsepsiyasining tutgan o‘rni, tarixiy shakllanishi va ma’naviy-tarbiyaviy asoslari tahlil qilinadi. Naqshbandiya, qodiriylik va yasaviylik tariqatlari misolida inson ruhiyatining poklanishi, nafsni isloh qilish, Allohga yaqinlashish va jamiyatda axloqiy yetakchilik fazilatlari bilan ajralib turuvchi komil inson timsoli o‘rganiladi. Maqolada komillikka erishishning bosqichlari, tariqatlar o‘rtasidagi yondashuvlar farqlari va ularning zamonaviy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tasavvufiy g‘oyalarning bugungi ma’naviy hayotdagi dolzarbligi va tarbiya tizimidagi tutgan o‘rni haqida ilmiy fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, komil inson, tariqat, naqshbandiya, qodiriylik, yasaviylik, ruhiy kamolot, nafs, ma’naviy tarbiya;

ВОПРОС СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В УЧЕНИЯХ СУФИЕВ

Аннотация. В статье анализируются роль, историческое становление и духовно-просветительские основы концепции совершенного человека в учениях исламских суфийских орденов. На примере орденов Накшбанди, Кадирийа и Ясавийа изучается образ совершенного человека, отличающегося качествами очищения человеческого духа, исправления души, приближения к Богу и морального лидерства в обществе. В статье раскрываются этапы достижения совершенства, различия в подходах между орденами и их современное значение. Также выдвигаются научные идеи об актуальности мистических идей в сегодняшней духовной жизни и их месте в образовательной системе.

Ключевые слова: суфизм, совершенный человек, орден, Накшбанди, Кадирийа, Ясавийа, духовное совершенство, душа, духовное образование;

THE ISSUE OF THE PERFECT HUMAN IN THE TEACHINGS OF SUFIS

Abstract. This article analyzes the role, historical formation, and spiritual and educational foundations of the concept of the perfect person in the teachings of Islamic Sufi orders. Using the example of the Naqshbandi, Qadiriya, and Yasawiya orders, the image of the perfect person, distinguished by the qualities of purification of the human spirit, reform of the soul, approaching God, and moral leadership in society, is studied. The article reveals the stages of achieving perfection, the differences in approaches between the orders, and their contemporary significance. Also, scientific ideas are put forward about the relevance of mystical ideas in today's spiritual life and their place in the educational system.

Keywords: sufism, perfect person, order, Naqshbandi, Qadiriya, Yasawiya, spiritual perfection, soul, spiritual education;

Kirish. Insonning komillikka erishishi g‘oyasi qadimdan turli falsafiy, diniy va axloqiy tizimlarning markaziy mavzusi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, islomiy tafakkurda bu masala alohida o‘rin tutadi. Qur’oni karim va Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida insonning yaratilish maqsadi – Allohga bandalik qilish, poklanish va axloqiy jihatdan yuksalishga intilish sifatida ta’riflanadi. Islom ilohiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan tasavvuf esa bu jarayonni ichki dunyo, qalb va ruhiyat bilan bog‘liq holda tushuntiradi.Tasavvuf, ya’ni islomiy irfon, shaxsning ilohiy haqiqatga yaqinlashishi, ma’naviy kamolot sari yo‘l olishi va axloqiy jihatdan yuksalishining amaliy-madaniy ifodasi sifatida shakllangan. Bu yo‘nalishda komil inson (al-insan al-kamil) tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Komil inson – bu Alloh taoloning yaratgan eng mukammal namunasi, Uning sifatlarini o‘zida aks ettirgan va jamiyatda ruhiy yetakchilik darajasiga erishgan shaxsdir. Tasavvuf tariqatlarining maqsadi ham aynan ana shunday komil insonlarni tarbiyalashdan iborat bo‘lgan.

Tasavvuf tarixida yuzlab tariqatlar paydo bo‘lgan bo‘lib, ularning har biri komillikka erishishning o‘ziga xos yo‘lini ishlab chiqqan. Naqshbandiya, qodiriylik, yasaviylik kabi mashhur tariqatlarda inson ruhiyatining sayri suluk orqali yuksalishi, qalbni poklash, nafs bilan kurashish va ma’naviy kamolotga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida yashab ijod qilgan tasavvufiy mutafakkirlar – Ahmad Yassaviy, Bahauddin Naqshband, Abduholiq G‘ijduvoniy, Mahdumi A’zam va boshqalar bu masalaga chuqur ilmiy va amaliy yondashganlar [1].

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ma’naviy-intelektual inqiroz, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, ruhiy bo‘shliq va individualizm avj olgan bir paytda, tasavvuf ta’limotidagi komil inson konsepsiyasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, balki aksincha, yana-da ahamiyat kasb etmoqda. Zero, tasavvuf komil insonni jamiyat islohchisi, axloqiy mayoq va ruhiy tarbiya manbai sifatida ko‘radi. Bunday shaxs faqat o‘zini emas, balki atrofidagi jamiyatni ham ijobiy tomonga o‘zgartira oladi.

Ushbu maqolada tasavvuf tariqatlari ta’limotida komil inson masalasi tarixiy, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, naqshbandiya, qodiriylik va yasaviylik tariqatlarida komillikka erishish mezonlari, ruhiy tarbiya bosqichlari, axloqiy-irodaviy fazilatlar va ularni shakllantirish uslublari yoritiladi. Maqola orqali biz nafaqat tasavvufdagi komil inson timsolini anglash, balki uni zamonaviy inson tarbiyasida qanday tatbiq qilish mumkinligi haqida mulohaza yuritamiz.

Asosiy qism: Insonparvarlik insonning eng ijobiy fazilatlaridan. Sen insonparvar bo’lsang senga ham insonparvarlik qilishadi. Xalqimizda “Qars ikki qo‘ldan chiqadi”, degan fikrning muloqotda bo‘lishi bejiz emas. Insonparvarlik bu boshqa birov uchun g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, kerak bo‘lsa jonini ham fido qilish demakdir.

Yuksak insonparvarlik g‘oyalari, komil inson ta’limoti tasavvufda har tomonlama o‘z ifodasini topgan. Tasavvuf ilmining asosiy axloqiy qoidalari va ijtimoiy g‘oyalari Axmad Yassaviyning «Faqrnoma», Farididdin Attorning «Tazkiratul-avliyo», «Mantiqut-tayr», Aziziddin Nizomiy Ganjaviyning «Mahzanul-asror», Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy», «Fihi mofihi», Jomiyning «Nafaxotul-uns», Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat», «Lisonut tayr», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvat- nomai sultoniy», Ali Safiyning «Rashahot ayn- al hayot» va boshqa allomalar asarlarida ilmiy-fapsafiy jihatdan yaxshi yoritilgan [2].

Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson ideali buning teskarisi bo‘lgan tuban odamlarning qilmishlarini fosh etish orqali ilgari suriladi:

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo‘q,
Podsholarda, vazirlarda adolat yo‘q,
Darveshlarning duosida ijobat yo‘q,
Turluk balo xalq ustiga yog di, do‘stlar.

Bu yerda o‘rta asr mutafakkiri jamiyatdagi hukmron tabaqalarning axdi dunyo, ya’ni, mol-dunyo egalari, boylarda saxovat yo‘qligini qoralamoqda. Sahovatli boylar esa, Imom G‘azzoliy aytganidek, Haq taolo do‘stlari - darveshlar va faqirlarga yordam qo‘lini cho‘zgani uchun ularga oxiratda jannat eshiklari ochilur.

Ammo, podshohlar, vazirlar, boylarning adolatsizligi, saxovatsizligidan tashqari ularga laganbardorlik qiluvchi, pora beruvchi ba’zi odamlarning nodonligi ham jamiyatni tanazzulga uchratadi. Shu ma’noda Ahmad Yassaviy nodonlardan bezorligini bunday ifodalaydi:

Ayo, do‘stlar, nodon birla ulfat bo‘lib,
Bag‘rim kuyib, jondan to‘yib, o‘ldim mano,
To‘g‘ri aytsam, egri yo‘lga bo‘yin to‘lg‘ar,
Qonlar yutib, g‘am zahriga to‘ydim mano,
Yoki Pahlavon Mahmud nazarida, nodonlar uchun
Hayfki, bahoda o’tinu, ud bir. Yoki Pahlavon Mahmud nazarida, nodonlar uchun

Ham martabada Halilu Namrud bir,
Davlatdan mast bo‘lgan anqov nazdida,
Eshak ovoziyu, kuyi Dovud bir.

Bunday nodonlarni inkor etish ham ma’naviy uyg‘onishning ifodasidir.

Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy» dostonidagi hikoyatlardan birida uzoq vaqt yurib, suvga tashna bo‘lgan darvesh tiniq suvi sharqirab oqayotgan daryo yoqasiga kelib qoladi, Ammo, u turgan joy baland toshlar ustida, daryo suvi esa juda pastlikda ekanidan darvesh suvga yetisholmaydi, o‘ylanib turib u oyog‘i ostidagi harsang toshlarni birin-ketin olib, pastga tashlay boshlaydi. Shunda qirg‘oq tobora pasayib, suv tobora yaqinlashaveradi va nihoyat darvesh suvga yetishib, tashnaligini qondiradi. Bu majoziy hikoyada mutafakkir inson ma’naviyatning zilol suviga yetishish uchun o‘zining balandligi - takabburligidan, fe’lidagi tosh bo‘lib yotgan boshqa ko‘pgina illatlardan qutilganida haqiqatning tiniq suviga yetish mumkinligini uqdiradi.

Aslida tasavvuf ta’limotining ildizlari Iso payg‘ambar nasihatlari - masihiylik ta’limotiga, Qur’oni Karimga va payg‘ambar Muhammad (sollollohu alayhi va sallam) hadisi shariflariga borib taqaladi. XI asrda Movarounnahrda yashagan mutafakkir Sayfuz-Zafar Navbahoriy «Durrul-majolis» asarida tasavvufda komil insonlikning talablaridan biri kibru havodan, boylarcha va podshohlarcha hayotning zebu ziynatlaridan kechib, kamtarona, faqirona yashash ekanligini Iso payg‘ambar hayotiga aloqador hikoyada yaxshi ochib beradi.

O‘rta asr mutafakkiri Navbahoriyning Qur’oni Karimni va islom falsafasini, kalom va tafsir ilmini yaxshi bilishi tabiiydir. Ammo u Tavrotni ham yaxshi o‘rgangan, zero, bu o‘rta asrlardagi islom Uyg‘onish ziyolisi uchun xos xususiyat edi. Navbahoriy hazrati Isoni islom aqidasiga ko‘ra, eng jafokash payg‘ambarlardan biri ekanini tasvirlar ekan, xristianlar uni Xudoning o‘g‘li, deb hisoblashini qoralaydi. Islom ziyolisi sifatida u hazrati Isoni islom payg‘ambari sifatida faqirona, kamtarona hayotini mehr bilan tasvirlaydi. Aslida xristianlar ham uni o‘ta kamtarinligi va xalq gunohlari uchun o‘zi jafo chekkani uchun sevadilar. Bu jihatdan masihiylar bilan musulmonlarning qarashlari o‘xshashdir. Navbahoriy asarida Iso payg‘ambar shaharlik takabbur va xudbin odamlarning fisqu fasodlaridan bezib, cho‘llarda

yolg‘iz yurgani, bir hafta tinimsiz yomg‘ir yog‘ib turganida, quyonning inida ham jon saqlagani tasvirlanadi. Shu ahvolda ham u bechora, ojizlar haqida qayg‘uradi, ularni himoya qiladi. Shu ma’noda G‘arbda xristian falsafasida ham, Sharqda islom falsafasida ham insonparvarlikning ustuvorligini e’tirof qilish, bechora, ojizlarga, oddiy fuqarolarga nisbatan jabr-zulmning har qanday ko‘rinishlarining qoralanishi Uyg‘onish davriga xos umumiy xususiyatlardan biridir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va tadqiqot metologiyasi.

Komil inson tushunchasi va tasavvuf tariqatlari ta’limotini o‘rganishda boy ilmiy adabiyotlar fondi shakllangan bo‘lib, ularni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: 1) asosiy islomiy manbalar (Qur’on, hadislar, tafsirlar), 2) klassik tasavvufiy manbalar (pir va shayxlarning asarlari), 3) zamonaviy ilmiy izlanishlar, monografiyalar, maqolalar va tadqiqotlar.

1. Asosiy diniy va falsafiy manbalar

Tadqiqotda eng avvalo **Qur’oni karim** va **payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislari** asosiy ilohiy manba sifatida foydalanildi. Komil inson g‘oyasi Qur’onda bevosita “al-insan al-kamil” atamasi bilan ifoda etilmasa-da, uning asoslari “taqvoli, pok, sabrli, rahmdil, adolatli” inson obrazlari orqali keng ifodalangan. “Qasamki, Biz insonni eng go‘zal holatda yaratdik” (Tīn surasi, 4-oyat) oyati tasavvufdagi komillikka intilishning ilohiy manbai hisoblanadi.

Imom al-G‘azzoliyning **“Ihyo ulum ad-din”** asari nafaqat tasavvufiy axloqiy tizimni shakllantirdi, balki komil inson tarbiyasiga oid eng muhim manbalardan biridir. U qalbni poklash, nafsni jilovlash, ma’naviy-mustahkam fazilatlarni shakllantirishda fikr yuritadi.

Shuningdek, **Ibn Arabiy**ning “Fusus al-hikam” va “Al-Futuhat al-Makkiyya” asarlarida **“al-insan al-kamil”** tushunchasi falsafiy-tasavvufiy darajada chuqur tahlil etilgan. Ibn Arabiyga ko‘ra, komil inson – bu Allohning barcha ismlarini o‘zida aks ettiruvchi, zohiriy va botiniy mukammallikka erishgan zotdir. Uning konsepsiyasi keyinchalik deyarli barcha tariqatlar ta’limotiga ta’sir ko‘rsatdi.

2. Tasavvufiy tariqatlarga oid manbalar

Har bir tariqatning o‘z asoschisi va unga oid yozma manbalari mavjud bo‘lib, ular komil insonni tarbiyalashning amaliy-uslubiy asoslarini o‘z ichiga oladi:

- **Naqshbandiya tariqati** doirasida Bahauddin Naqshband va uning muridlari tomonidan yozilgan risolalar, jumladan **Abduholiq G‘ijduvoniy**ning “Kalomat”, “Maqomat” asarlari va Naqshbandiy shayxlarining suhbatlarida “sohibi-dil”, “ahl-i suhbat”, “qol va hol” uyg‘unligi orqali komillikka erishish tahlil qilinadi [3].
- **Ahmad Yassaviy**ning “Devoni Hikmat” asari esa xalq orasida tasavvuf g‘oyalarini ommalashtirish, oddiy tilda komillik g‘oyasini tushuntirishda benazir manbadir. Yassaviy 40 maqom yo‘li orqali muridning qalbiy va ruhiy yetilish bosqichlarini obrazli, badiiy ifodalagan.
- **Abdulqodir Jiloniyning** “Futuh al-Ghayb” va “G‘unyat at-talibin” asarlarida qodiriylik tariqatining asosiy g‘oyalari, ayniqsa tavakkul, taqvo, zuhd va ma’rifat orqali ruhiy kamolotga erishish yo‘llari bayon etilgan.

Ushbu manbalar tasavvuf tariqatlarining o‘ziga xos ruhiy-metodik maktabga aylanganini ko‘rsatadi.

3. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va monografiyalar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda va xalqaro miqyosda tasavvuf, axloqiy kamolot va komil inson mavzusida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan:

- **N. Komilov**ning “Tasavvuf va komil inson” (2001) nomli asarida tasavvufiy tafakkur, axloq va ruhiy kamolot masalalari zamonaviy kontekstda tahlil qilingan.
- **U. Yo‘ldoshev**ning “Tasavvuf va axloq” (2015) asarida turli tariqatlarning axloqiy tizimi, ruhiy bosqichlari va ularning tarbiya metodlari o‘rganilgan.
- **H. Rasulov**ning “Tasavvufning ijtimoiy-falsafiy mohiyati” nomli tadqiqotida tasavvuf nafaqat diniy, balki falsafiy va jamiyatshunoslik mezonlarida baholangan.

- Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent Islom instituti va boshqa ilmiy muassasalarda tayyorlangan magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari mavzuni chuqurlashtirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda tarixiy, taqqosloviy, analiz-sintez va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi. Birinchi navbatda, **tarixiy yondashuv** orqali tasavvuf tariqatlarining paydo bo‘lishi, ularning shakllanish bosqichlari va komil inson tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi o‘rganildi. Shuningdek, **taqqosloviy metod** asosida naqshbandiya, qodiriylik va yasaviylik tariqatlarida komil inson g‘oyasining o‘xshash va farqli jihatlari solishtirildi.

Kontent tahlil metodologiyasi orqali tasavvufiy manbalar – hikmatlar, risolalar, murshidlar ta’limotlari tahlil qilinib, ular orqali komil insonning fazilatlari, tarbiya usullari va ruhiy kamolot darajalari aniqlab chiqildi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va falsafiy asarlardagi qarashlar tahlil qilindi.

Tadqiqot sifatida **ilmiy-analitik yondashuv** tanlanib, mavzuning dolzarbligi, zamonaviy hayotdagi ahamiyati va amaliy tatbiq yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqildi. Tasavvuf ta’limotining hozirgi davr tarbiya, axloq va ma’naviy kamolot tizimidagi tutgan o‘rni haqida xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar.

Ushbu tadqiqot davomida tasavvuf tariqatlari ta’limotida komil inson konsepsiyasi chuqur tahlil qilinar ekan, quyidagi asosiy ilmiy xulosalar va natijalar aniqlab olindi:

1. Komil inson konsepsiyasi tasavvufning markaziy g‘oyasidir

Tasavvuf tariqatlarining barchasida komil inson timsoli markaziy o‘rinda turadi. U ilohiy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, nafsiy poklikka erishgan, jamiyat uchun foydali bo‘lgan yetuk shaxsdir. Bu tushuncha Qur’on va Hadislar asosida shakllanib, keyinchalik Ibn Arabiy, Imom G‘azzoliy, Ahmad Yassaviy va boshqa mutasavviflar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan chuqurlashtirilgan.

2. Tariqatlar komillik sari yetaklaydigan ma’naviy-tarbiyaviy tizimdir

Naqshbandiya, qodiriylik va yasaviylik tariqatlarining ta’limotlarida komil inson tarbiyasi bosqichma-bosqich yo‘l sifatida belgilangan. Har bir tariqat o‘ziga xos uslub (zikr, suhbat, khalvat, murshid-murid munosabati va h.k.) orqali shaxsni ilohiy kamolot sari yetaklaydi. Bu tizimda qalb pokligi, axloqiy yetuklik, sabr, shukr, muhabbat, xizmat kabi fazilatlar asosiy mezon sifatida qaraladi.

3. Naqshbandiya tariqatida ruhiy kamolot amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgan

Naqshbandiylikda "Dil ba Yor, dast ba kor" shiori asosida ruhiy kamolot va dunyoviy faoliyat uyg‘unligi tamoyili ilgari suriladi. Bu tariqatda komil inson – jamiyatda faol, mehnatsevar, ammo qalban Alloh bilan bo‘lgan shaxs sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv ayniqsa zamonaviy jamiyatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Yassaviylik tariqati xalq ruhiyatiga yaqinlashgan g‘oyalar orqali komillikni targ‘ib etgan

Ahmad Yassaviy o‘zining “Hikmatlar” asarida komil inson obrazini xalq tili va uslubida ifodalagan. Uning 40 maqomli ruhiy sayr yo‘li orqali murid qalbiy poklik, sabr, tavoze, muhabbat, fano kabi bosqichlarni bosib o‘tadi. Yassaviylik xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, uning ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

5. Zamonaviy hayotda komil inson g‘oyasi dolzarb ahamiyatga ega

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda insoniyat ma’naviy va axloqiy inqiroz muammolari bilan yuzma-yuz kelayotgan bir davrda tasavvuf ta’limotidagi komil inson konsepsiyasi qayta muhimlik kasb etmoqda. Bu g‘oya zamonaviy tarbiya, ta’lim, axloq, psixologiya, yetakchilik va jamiyatshunoslik kabi sohalar

uchun ham ahamiyatlidir. Komil inson – bu nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning negizi sifatida qaralmoqda.

Xulosa. Tasavvuf tariqatlarining asosiy maqsadi – ilohiy muhabbat va ruhiy kamolot orqali komil insonni tarbiyalashdir. Har bir tariqat bu maqsad sari o‘zining maxsus yo‘li va uslublari bilan xizmat qiladi. Komil inson tushunchasi – tasavvufning markaziy kontseptsiyasidir va bu tushuncha orqali axloqiy poklik, ma’naviy yuksalish va jamiyatga foyda keltirish asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi. Bugungi ma’naviy inqirozlar davrida tasavvufiy ta’limotlar, ayniqsa, komil inson konsepsiyasi yana-da dolzarb bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davronov Z. Barkamollikka da’vat maktublar. – Toshkent: Tamaddun, 2017. 151-152-betlar.

2. Komil inson haqida to‘rt risola: Farididdin Attor, Sulton Vatad, Aziziddin Nasafiy, Husayn Voiz Koshifiy ijodidan namunalar /Fors-tojik tilidan N. Komilov tar. – Toshkent: «Ma’naviyat», 1997, 280-b.

3. Deqqonov B. Xojagon-naqshbandiya ta’limotida bag‘rikenglik tushunchasining falsafiy tahlili. F.f.b.f.d., (PhD) dis. – Buxoro, 2022. 31-32-betlar.

4. Qiyomiddin Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. Ikkinchi jild // O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – Toshkent: Ma’naviyat. 2019. – B. 324-326-b.

5. Rossiyskaya sotsiologicheskaya ensiklopediya. – Moskva: Nauka, 1998. 278 s. 6. G. N. Navro‘zova. Nakshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent:“Fan”, 2005. – B. 637.

7. Gafurov B. A., & Xolnazarova, D. M. (2016). Otrajeniye sotsialnoy I religioznoy politiki Babura v yego zaveshanii. Nauka I obrazovaniye segodnya, (4 (5)), – B. 59-60.

8.Xolnazarova D. M.(2024). Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirishni takomillashtirish. Yelita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), – B. 264-266.